

## BUXORO XONLIGI DAVRI MADRASALARI TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Mamatqulova Farangis Orzuqulovna, Sharof Rashidov  
nomidagi Samarqand davlat universiteti “Tarixshunoslik va  
manbashunoslik” kafedrasida tayanch doktoranti

[https://orcid.org/0009-](https://orcid.org/0009-0000-4592-7772)

[0000-4592-7772](https://orcid.org/0009-0000-4592-7772)

e-mail:

[mamatqulovafarangis@gmail.com](mailto:mamatqulovafarangis@gmail.com)

[ail.com](http://ail.com)

## ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ ИСТОРИИ МЕДРЕСЕ В ПЕРИОД БУХАРСКОГО ХАНСТВА

Маматкулова Фарангис Орзукуловна, докторант кафедры  
“Историография и источниковедение” Самаркандского  
государственного университета имени Шарофа Рашидова

## SOURCE STUDIES OF THE HISTORY OF MADRASAH IN THE PERIOD OF THE BUKHARA KHANATE

Mamatkulova Farangis Orzukulovna, Samarkand State  
University named after Sharof Rashidov, Doctoral student of the  
Department of Historiography and Source Studies

**Annotatsiya:** Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro xonligi o'zining me'morchilik san'atida yuksak darajaga ko'tarildi – Shayboniixon madrasasi, Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi, Masjidi Kalon va boshqalar. Ushbu maqolada Buxoro xonligi davridagi madrasalarning bunyod etilishi va faoliyati tarixi manbashunosligi to'g'risidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Shayboniylar, Buxoro, madrasa, xattotlik, tarix, tibbiyot, me'morchilik, ta'lim tizimi, uslubiy qo'llanmalar, manbashunoslik.

**Abstract:** During the reign of the Shaibani dynasty, the Bukhara Khanate rose to a high level in its architectural art – the Shaibani Khan Madrasah, the Mir Arab Madrasah, the Abdullah Khan Madrasah, the Kokaldosh Madrasah, the Kalon Mosque and others. This article covers information about the history of the creation and activities of the madrasah during the Bukhara Khanate.

**Key words:** Shaibanids, Bukhara, madrasah, calligraphy, history, medicine, architecture, education system, teaching aids, source studies.

**Аннотация:** В период правления династии Шайбани Бухарское ханство поднялось на высокий уровень в своем архитектурном искусстве – медресе Шайбанихана, медресе Мир Араб, медресе Абдуллахана, медресе Кокалдош, мечеть Калон и другие. В данной статье освещены сведения об истории создания и деятельности медресе в период Бухарского ханства.

**Ключевые слова:** Шайбани, Бухара, медресе, каллиграфия, история, медицина, архитектура, система образования, методические пособия, источниковедение.

**KIRISH.** XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan Temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq tomonidan Muhammad (Shohbaxt) Shayboniyxon hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501-yillarida Samarqand va Buxoroni, 1504-yilda Fargʻona, Hisor viloyatini, 1505-yilda Urganchni, 1506-1507-yillari Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni bosib oldi, 1508-1509-yillarda Shayboniyxon Xurosondan qaytib kelib Qozoq sultonlariga zarba beradi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi hamda Shayboniylar sulolasi hukmronligi qaror topdi. Ubaydullo sulton 1533-yilda Shayboniylar davlatining oliy hukmdori boʻldi va poytaxtni Samarqanddan Buxoroga koʻchirdi. Shayboniy Ubaydulloxon (1533-1539) davrda Buxoro mavqei ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi. Shu tariqa Shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati Buxoro xonligi deb atala boshlandi. Shayboniylar sulolasining qudratli vakili Abdullaxon II (1534-1598) davrida oʻzbek davlatchiligi yana bir bor yuksak darajaga koʻtarildi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Shayboniylar davridagi taʼlim tizimi ayniqsa diqqatga sazovorligi bir asr mobaynida 26 madrasaning barpo etilishi bilan juda katta ahamiyatga molikdir. Bu madrasalar hokimlar va ularning ayollari mablagʻlari hisobiga barpo etilgan va shunga koʻra aksariyati ularning nomlari bilan atalgan. Madrasalarning xarajatlari, talabalarning nafaqalari birinchi bor davlat zimmasiga oʻtkazilgan edi. Mir Arab madrasasi, Chorbakr qasri, Kalon masjidi kabi ulkan va nihoyatda chiroyli binolar, mashhur Buxoro devorlari, yopiq bozorlar, karvonsaroy va xonaqohlar shu davrda barpo etilgandi. Mamlakat poytaxti Buxoro sharqning madaniy markazlaridan biriga aylangan edi. Tarix, falsafa, fiqh, tilshunoslik, matematika va sheʼriyat yaxshi rivojlanish bosqichida boʻlgan. Muhammad Shayboniyxonning oʻzi keng ilmiy, noziktabiat shoir boʻlganligi, oʻzi bilan hatto harbiy harakatlar davrida ham kutubxonasini olib yurishi, Ubaydulloxon, Abdullaxon, Abdulazizxonlarning oʻzlari ham sheʼriyatda oʻz nomlarini qoldirganliklariga birtalay tarixiy dalillar mavjud. XVI asrda Buxoroning poytaxt maqomiga ega boʻlishi natijasida bu shahar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy markaz sifatida ham yuqori nufuzga ega boʻldi.

Shayboniyxon taʼlim sohasida ham islohotlar oʻtkazdi. Bu islohotning oʻtkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab boʻldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar boʻyicha ilmiy, diplomatik qobiliyatga ega boʻlgan amaldorlar zarur edi. Islohotga koʻra koʻp bosqichli oʻqitish tizimi joriy etilgan boʻlib, taʼlimning quyi bosqichi maktab hisoblangan va bolaga 6 yoshidan taʼlim berilgan. Maktabda ikki yil oʻqigach, oʻquvchilar madrasaga oʻtkazilgan. Madrasa 3 bosqichli taʼlim joriy etilgan boʻlib, har bir bosqichida 8 yildan tahsil olingan. Shunday qilib oʻqish 26 yil davom etgan. Madrasada talabalar uchun oʻrnatilgan tartib, qonun-qoidalariga, axloqiy masalalarga qatʼiy rioya etishlari talab etilishi muhim omillardan biri edi. Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullonoma” asarida Abdullaxon II ning madrasasi faoliyati haqida qimmatli maʼlumotlarni bergan. Madrasada bu davrdagi anʼanaga muvofiq islom dini va shariat qoidalariga qatʼiy amal qilingan.

Madrasaga xon tomonidan tayinlangan madarris taʼlim jarayonini nazorat qilgan. Va vaqf mulklaridan ham toʻla hissador boʻlgan. Bu esa muddarisning qay darajada katta mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. Zayniddin Vosifiyning maʼlumotlariga qaraganda XVI asrning 20-yillarida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Balx madrasalarida aholining farzandalari riyoziyot, hikmat, kimyo, ilm-u nujum, tafsir, fiqh, hadis ilmlari hamda adabiyot, musiqa sohaları boʻyicha taʼlim olgan. Bu davrda tibbiyot sohasida qilingan ishlar ham muhimdir. Shayboniy hukmdorlari ichida Abdullaxon II tarixda maʼrifatparvar hukmdor sifatida nom qoldirgan. Oʻsha davrda yashab ijod etgan tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy shunday maʼlumotlarni keltiradi: “Fanlar fazilatida hammaga maʼlum taniqli boʻlib, saltanat choponi uning boʻyiga munosib tikilgan edi. Hamma sohalarni aql nuri bilan yoritib, taʼbining oʻtkirlikidan ilm-u fanning hamma sohaları unga maftun edi. Zehnining tezligidan gʻarb haqiqatlari va badi maʼnilarni bayon qilishga qodir edi”.

1541-yilda Muhammad Husayn Ibn al-Meʼroni as-Samarqandiy tibbiyot va farmakologiya roʻyxatiga oid ilmiy asar yozib, oʻta dorivor oʻsimliklardan dori tayyorlash va saqlash uchun ishlatiladigan idishlarning rangdor nafis suratlarini ilova qilindi. XVI asr qozilarining hujjatlarida Samarqandda tabiblar koʻz kasalliklarini davolash

ishlari bilan shug'ullanib kelganliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ko'z tabibi Shoh Ali ibn Sulaymon Navro'z Ahmadxon huzurida ishlagan. Samarqandda Ko'chkinchixon zamonida hirotlik tabib Sulton Ali ishlagan. U kasalliklar va terapiya haqida umumiy ma'lumot beradigan "Tabiblik dasturulamali" asarini yozgan [1].

Bu davrda tibbiyot sohasida bir qancha mohir tabiblar, hoziq hakimlar yetishib chiqdilar, o'z davrida "iftixor-ul-atibbo" ya'ni, tabiblar iftixori unvonini olgan Muhammad Mazid, Hakim Shahrisabziy, jarroh (xirurg) mavlono Baqo, mavlono Rafe, 1541-yilda ilmi tib va dori-darmonlar haqida asar yozgan Muhammad Husayn ibn Shirakas Samarqandiy, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan Shoh Ali ibn Sulaymon, o'z zamonasining Suqroti nomini olgan Xoja Hakim (vafoti 994/1585) va "natijat ul-atibbo" laqabini olgan mavlono Abdulhakim ibn Mavlono Sulton Mahmud kabi hakimlar shular jumlasidan hisoblanadi. Bu tabiblar orasida, ayniqsa, mavlono Muhammad Mazid o'zining ilmiy faoliyati bilan alohida ajralib turadi. Bu haqida Nisoriy shunday deydi: "Zamon tabiblarining aksariyati tib ilmini mavlono oldida o'qidilar"[2].

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda mashhur hakim, tabiblar davolash ishlari bilan shug'ullangan, davolash asboblari, har xil dorilar ixtiro qilish bilan ham shug'ullangan. Katta markaziy shaharlarda dorush-shifolar faoliyat ko'rsatgan. Dorixonalar va shifoxonalar xususiy bo'lib, ulardan foydalanish uchun katta mablag' to'langan. Shuning uchun ham undan foydalanish hammaga ham nasib qilmagan. Bunday dorush-shifo va dorixonalar Jo'ybor xojalari ixtiyorida ham bo'lganligi tarixiy manbalarda zikr etilgan [3]. Bu davrda tibbiyot sohasi bilan birga rassomlik, naqqoshlik va xattotlik san'atlari ham rivojlangan. San'atning bir turi hisoblangan xattotlik kishilarga estetik zavq bag'ishlagan, unga qiziqish kuchaygan. Bosmaxona haqida o'ylash u yoqda tursin, hatto kitob nashr etish xayolga ham kelmagan bir davrda, xattotlik san'atiga ehtiyoj katta bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham bu davrda bir qancha mashhur xattotlar yetishib chiqqan. Ularning mehnati tufayli ilm-fanning turli sohalariga oid ilmiy adabiy asarlarning aksariyati bizning davrlarimizga yetib keldi[4].

Ayrim madrasalar alohida ixtisoslashgani bois ularda maxsus fanlar ham o'qitilgan. Masalan, tabiblar tayyorlashga moslashgan Dorush-shifo madrasasida Abu Ali ibn Sino, Ar-Roziy, Abu Ali ibn Rizvon Misriy kabi tabiblarning asarlari o'rganilgan. Bundan tashqari 1511-yilda yozilgan, 101 betdan iborat Muhammad Yusufning "Tibbiy Yusufiy" deb nomlangan risolasi tibbiyotga taalluqli ma'lumotlar haqida bo'lib, tabiblarni tayyorlaydigan madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. O'sha davrlarda mahalliy mudarrislar ta'lim-tarbiya ishlariga keng jalb etilgan bo'lib, Zayniddin Vosifiy Toshkentda o'zbek Navro'z Ahmadxon huzurida muallimlik qilgan [5]. Ta'limning asosiy o'choqlari bo'lgan madrasa, masjidlarda o'quv yakka yoki guruh tartibida olib borilgan. O'qish va yozishni bilgan ma'lumotli kishilar yuksak qadrlangan, natijada xalq orasida bilimga intiluvchilar soni orta borgan. Davlat hukmdorlari va saroy a'yonlari bilim sharaf deb bilgan. Manbalarda ko'rinadiki, o'qitish tizimi o'sha davrlar mezonlariga muvofiq yaxshi yo'lga qo'yilgan [6].

Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning bergan ma'lumotlariga ko'ra Buxoro madrasalarida XVI asrda qiroat ilmiga alohida e'tibor qaratilgan va har talabdan Qur'anni to'liq yod olish va ma'nolarini tushunish talab etilgan. Bu uslub garchi an'anaviy bo'lsa-da, bu davrga kelib talabalar uchun maxsus darsliklar yaratildi va oldingi uslubiy qo'llanmalar mukammallashtirildi. Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligida faoliyat ko'rsatgan asosiy o'quv inshootlari quyidagi tuzilishda bo'lgan: yirik madrasalar, hujralar toqi ravoqli, ichki-tashqi sahnli, masjid, darsxona, tahoratxona, darvoza, hovuzli majmua va kichik madrasalar, odatda, faqat hujralardan iborat bo'lgan. O'quv inshootlarini qurishda g'ishtin, sangin, ganch, chubin, xom g'isht kabi xomashyolar keng tarqalganligi tarixiy manbalarda qayd etib o'tiladi [7].

Bu davrlarda Buxoro xonligida olib borilgan me'moriy qurilish ishlari ingliz sayyohi Antoni Jenkinsonning esdaliklarida ham saqlanib qolgan. Sayyoh shaharda qurilishlar avj olganligini va yangi qurilgan Mir Arab madrasasida 200 dan ortiq talaba ta'lim olishi to'g'risida ma'lumot bergan [8].

XVI asr madaniy hayoti va ta'lim tizimi haqida gap ketganda, Buxoro xonligida yuksak mavqega ega bo'lgan Jo'ybor xojalarining o'rnini ta'kidlab o'tish kerak. Chunki Jo'yboriy shayxlar bu soha rivojiga xonlardan ham ko'proq hissa qo'shgan.

Bu davr ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarida islom dini va dinga munosabat masalasi asosiy o'rin tutadi. Jo'yboriy xojalardan ayniqsa, Xoja Islom va Xoja Sa'd qurdirgan binolar ahamiyatga molik. Xoja Islom tomonidan bunyod etilgan Govkushon madrasasi uzoq yillar talabalarning bilim oladigan ma'rifat maskaniga aylanib keldi. Xoja Islom vafot etgach, o'g'li Xoja Sa'd uning ishlarini davom ettirganligi, u ham ta'mirtalab binolarni tuzatishga mablag' ajratganligi tarixiy manbalarda yaqqol keltirilgan.

**XULOSA.** Xullas, Shayboniylar ta'lim-tarbiyaning va ilm-ma'rifatning mamlakat taraqqiyoti uchun nechog'lik muhim ekanligini yaxshi anglab yetgan va bu soha rivoji uchun shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga, avvalo, o'zlari ma'rifatli bo'lishga harakat qilgan. Shayboniylar davrida mamlakatda ta'lim sohasi, me'morchilik, xattotlik, naqqoshlik, adabiyot, tarixnavislik, tibbiyotning yuksak bosqichga ko'tarilganligida ko'rinadi. Tasviriy san'at yuksalib, Buxoro miniatyura maktabi vujudga keldi. Kutubxonachilik (Abdulazizxon, Abdullaxon II kutubxonalar va boshqalar), kitob bezash va muqovachilik rivojlandi. Tibbiyot ilmi taraqqiy etdi (Muhammad Husayn ibn al-Miroqiy Samarqandiy, Shoh Ali ibn Sulaymon, Sulton Ali va boshqalar), yirik shaharlarda shifoxona (dor ush-shifo)lar tashkil qilindi. Ilm-ma'rifat

hamma zamonlarda yuksak qadrlangan, ilmi kishilar esa ma'naviyat darg'alari hisoblangan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bekchanov I. Hasanxoja Nisoriy Muzakkiri ahhob tazkisasi va XVI asr o'zbek adabiyoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertat. – Toshkent: 1993. – B.: 26.
2. G'oziyev S., O'tasheva Sh. XVI asrda Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy hayot. – Toshkent: 2014. – B.: 44.
3. G'oziyev S., O'tasheva Sh. XVI asrda Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy hayot. – Toshkent: 2014. – B.: 31.
4. Ibrohimov A. XVI asr O'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1976. – B.: 4.
5. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – Toshkent: 1999. – B.: 262- 263.
6. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. – Toshkent: Sharq 2000. – B.: 133.
7. Valixo'jayev B.N. Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi oliya. Universitet tarixidan lavhalar. – Samarqand: 2016. – B.: 133.
8. Bekchanov I. Hasanxoja Nisoriy Muzakkiri ahhob tazkisasi va XVI asr o'zbek adabiyoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss. –Toshkent: 1993. – B.: 35.

